

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O'ZBEK ADABIYOTI UNI O'QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani v.b. _____

f.f.n. Sh.Haydarov

“ _____ ” _____ 2013 yil

5141100 - o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun
AHMEDOVA MAFTUNAning

**Mustaqillik davridagi bolalar adabiyoti va
kitobxonligi orqali kichik yoshdagi o'quvchilarning
ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

prof. Mamatov A.

JIZZAX – 2014

REJA:

KIRISH.....

**I BOB. MUSTAQILLIK DAVRI BOLALAR ADABIYOTI VA
KITOBXONLIGI.....**

1.1. Bolalar kitobxonligi.....

1.2. Mustaqillik davri bolalar adabiyoti.....

II BOB. MUSTAQILLIK DAVRI BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARI

2.1. Xudoyberdi To`xtaboev, Farhod Musajon va bolalar kitobxonligi.....

2.2. Latif Mahmudov, Miraziz A'zam va bolalar kitobxonligi.....

2.3. Tursunboy Adashboev, Qambar Ota va bolalar kitobxonligi.....

XULOSALAR.....

ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. o'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi.

O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda «O'qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Ma'lumki, sinfda o`qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi. O`quvchilarni matn bilan tanishtirish o`qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi.

Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida ma'lumot berish, o`quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilish, asar pafosini his etish, notanish va ko`p ma'noli so`zlar, murakkabroq tarzda obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o`z ichiga oladi. Agar asar yil fasllari haqida bo`lsa, tabiat qo`yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o`qish muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshlang`ich sinflarning o`qish darslarida o`rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo`lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og`zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o`laroq, boshlang`ich sinflarning o`qish darslarida o`quvchilarning o`qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy - estetik tarbiya bilan chambarchas bog`lab olib boriladi.

Shunga ko`ra o`qish darslarining etakchi xususiyati o`quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi: Boshlang'ich ta'limning o`qish darslarida badiiy asarlarni janriy xususiyatlariga ko`ra o`rganishning ilmiy-pedagogik asoslari, o`qish darslarida bolalar adabiyoti vakillarining asarlarini o`rganish, uning ijtimoiy-pedagogik, ma'naviy mohiyati va tegishli shart-sharoitlarini asoslab berishdan iborat.

Malakaviy bitiruv ishi ob'ekti: umumiy o`rta ta'lim maktablarining o`quv-tarbiya jarayoni.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

- mustaqillik davri bolalar adabiyoti namunalari orqali o`quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish metodikasining mohiyatini asoslash;
- mustaqillik davri bolalar adabiyoti vakillari asarlarining kichik yoshdagi bolalarga ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatini yoritish;

Malakaviy bitiruv ishining metodologik asoslarini milliy g`oya va milliy mafkura yo`nalishida ta'limning insonparvar, demokratik tamoyillari negizida shaxs ma'naviyatini erkinlashtirish hamda uning ustivor yo`nalishlarini amalga tatbiq etishga oid nazariy yondashuvlar; O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning barkamol avlod kamoloti to`g`risidagi ilmiy-nazariy qarashlari; "Ta'lim to`g`risida"gi qonun; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»; Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan daxldor qonunlar; buyuk allomalarning ilmiy-nazariy ta'limotlari.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:

- Jamiyat rivojida interfaol usullar orqali o`qish darslarida samaradorlikni shakllantirishning o`rni aniqlandi;

Malakaviy bitiruv ishining nazariy ahamiyati:

- Yoshlarda insonga bo`lgan muhabbat va bugungi davr ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari tadqiq etildi;

- Tarbiya jarayonining bosh maqsadi «komil inson tarbiyasi» ekanligiga asoslangan xolda yoshlarda Insonparvarlikni shakllantirishning samarali mezonlari ahloqiy barkamollik, o`z-o`zini tarbiyalash va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga tatbiq etish ekanligi o`rganildi.

Malakaviy bitiruv ishining amaliy ahamiyati: O`qish darslarida interfaol usullardan foydalanish orqali samaradorlikni oshirish, shakllantirish, takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar, maktab o`quvchilarida axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar chiqilganligi bilan belgilanadi.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, uch bob, umumiy xulosalar, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati iborat bo`lib.

I BOB. MUSTAQILLIK DAVRI BOLALAR ADABIYOTI VA KITOBXONLIGI

1.1. Bolalar kitobxonligi

Bolalar adabiyoti soʻz san'ati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, yosh kitobxonlar qalbida oʻy-fikrlar uygʻotadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak gʻoyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan boʻlishi zarur. Eng muhimi mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak.

Bolalar adabiyoti yoshlarni imon-e'tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda qudratli quroldir.

Faqat chinakkam badiiy asarlargina bolalarga kuchli ta'sir koʻrsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning gʻoyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson etkazadi.

Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub” da tilni “koʻngil xazinasining qulfi” va soʻzni shu “xazinaning kaliti”, deb ta'riflaydi. Buyuk shoir kishilarni qisqa va mazmunli, chuqur mantiq bilan soʻzlashga chaqiradi. Bu talab, shubhasiz, bolalar yozuvchilariga ham taalluqlidir.

Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilmogʻi lozim.

Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so'z boyligini oshiradi.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona-diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo'lishga chaqiradi. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi. Ilm-fanga muhabbatni oshiradi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixor tuyg'ularini o'stiradi.

1.2. Mustaqillik davri bolalar adabiyoti

Xalq og'zaki ijodi tajribalari yozma adabiyotning maydonga kelishi va rivojlanishida boy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu erda yana bir narsani ta'kidlab o'tish kerakki, badiiy adabiyotning taraqqiyoti jamiyatning umumiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir.

Hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotida tinchlikning asosiy garovi bo'lmish do'stlik mavzusi tobora kengayib bormoqda. Bu mavzuda ayniqsa, S. Jabbor, E. Raimov, R. Tolib, A. Obidjon, H. Imonberdiev va boshqalar ta'sirchan asarlar yaratmoqdalar.

Bugungi o'zbek bolalar she'riyati haqida gap ketar ekan, maktab hayotini aks ettiradigan asarlar haqida alohida to'xtalib o'tish kerak. Hamma narsa o'qishga, maktabga bog'liq. Maktab mavzusida yozilgan she'rlarda ozoda maktablar, unda

qaynayotgan baxtli hayot, bolalarning ilm-fan nurlaridan bahramand bo`lishga intilishdek ijobiy fazilatlari ifodalanadi.

Ilyos Muslimning “Maktabim”, “Kitobcham” she’rlari kichik maktab yoshidagi bolalarga mo`ljallangan. “Maktabim”ni o`qigan bolada o`qishga, ilm-fan nurlaridan bahramand bo`lishga intilish yanada o`sadi:

Ona kabi mehribon –
Ilm-fanlarga makon,
Yayrab o`qiyman har on,
qadrdonim maktabim!
Senda darslar xilma-hil,
Ongim o`sar yilma-yil.
Sevinchlarga to`lar dil,
qadrdonim maktabim!

A’lochi o`quvchining maqsad va niyati ham a’lo darajada. Uning maqsadi o`lib, ulg`ayib, xalq uchun, ona o`lka uchun haqiqiy farzand bo`lib voyaga etish:

A’lo o`qishdir burchim,
Sarf etaman bor kuchim,
Ishlayman xalqim uchun,
qadrdonim maktabim!

Po`lat Mo`minning “Xoh o`qishda, xoh ishda”, “Er chopildi – javob topildi”, “Sinfimiz qo`shig`i”, “Ustozlar”, Rauf Tolibning “Katta tanaffusda”, “O`rtog`imiz yo`qoldi”, “Uy vazifasi”, Ergash Raimovning “Endi katta bo`laman” kabi asarlarida shu kunning nafasi sezilib turadi.

Bolalar rostgo'y, halol, poklikni yaxshi ko'rishadi. Aldamchilik, yolg'onchilik, xushomadgo'ylik ularning xarakterlariga to'g'ri kelmaydi. Rauf Tolib bolalardagi bunday xususiyatni "O'rtog'imiz yo'qoldi" she'rida yaxshi yoritgan. Valijon o'zining engiltakligi, yolg'onchi va xushomadgo'yligi bilan, faqat o'z foydasini ko'zlab ish ko'rishi bilan sinfda obro'sini yo'qotgan:

O'z foydasin o'ylar u

Do'st bo'lsin qandoq?

Oramizdan yo'qoldi,

Eh, bitta o'rtoq ...

Bugungi kun bolalar she'riyatida harbiy-vatanparvarlik ishlari ham ancha mukammal. Vatan urushi davri she'riyati tasvir markazida turgan jangovarlik, fashist bosqinchilariga kuchli nafrat, ona-Vatan himoyasiga chaqiriq, baynalmilal do'stlik g'oyalari so'nggi davr she'riyatida ham asosiy mavzulardan biriga aylandi. Ammo endi davr bilan bog'liq ravishda tasvir uslubining birmuncha o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, urush davri she'riyatida lirik qahramonning bevosita jang maydonlaridagi kechinmalari ifodalansa, keyinchalik jang qahramonlarining esdaliklari yoki u haqda boshqalarning taassurotlari, tinchlik uchun kurash g'oyasi, urushning faqat halokatli oqibatlarini ifoda etish birinchi o'ringa chiqarildi. Bu hol she'riyatda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usining, tushunchasining tobora kengayib, yangi-yangi qirralari namoyon bo'layotganligini, davr talabi asosida ijldiy an'ananing davom etayotganini, boyitilayotganini ko'rsatadi.

Hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotida she'riyat rivojlangani kabi nasrda ham salmoqli asarlar yuzaga keldi. Yozuvchilarning yangi-yangi avlollari kamol topdi. Ayniqsa, hikoyachilik o'sdi. Bolalarning yoshi, qiziqishi, dunyoqarashiga to'la javob bera oladigan hikoyalar bunyod etildi. Hakim Nazir, Yoqubjon Shukurov, Shukur Sa'dulla, Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboev, Turg'unboy g'oipov, Rahmat Azizxo'jaev, Latif Maxmudov, Farhod Musajon, Sobir Yunusov, Oqiljon Husanov, Mahmud Murodov, Nodir Nazarov, Ergash Raimov, Safar Barnoev, Abdusaid Ko'chimov, Rauf Tolib, Anvar Obidjon va boshqalarning faqat maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga mo'ljallangan o'nlab hikoyalar to'plami bosilib chiqdi.

So'nggi yillar bolalar dramaturgiyasida Ravshan Yorievning "Oqbuluq" (bir pardali) pesasi alohida ajralib turadi. Asar qahramonlari qudrat , Jasur, Gulshan, O'rmonchi bobo, Go'zal qiz, Olmaxon, qora dev, qari shayton, Maymoq shayton, Kichik shayton va boshqalar.

Bolalar o'rmonda karnaval o'tkazishmoqchi. Hamma bu marosimga hozirlik ko'rmoqda. Ammo ichi qora, qizg'anchiq qora dev-u shaytonlar bunga qarshi, nima bo'lganda ham karnavalni o'tkazmaslik – odamlarga pand berish rejalarini tuzadilar. Shifobaxsh, hammaning dardiga malham bo'ladigan ko'zachadagi Oqbuluq suvini zaharli suvga almashtirib, bolalarni nobud qilmoqchi bo'ladilar. Shu payt bolalarga Olmaxon yordam o'lini cho'zadi. Shaytonlar o'zlari yasagan ko'zadagi zaharli suvni ichib halok bo'ladilar.

O'rmonda katta shodlik, o'yin-kulgi boshlanib ketadi.

Latif Mahmudovning “Ali bilan Vali”, “Eh, attang...”, “Muhim topshiriq”, “Sirli xat”, “Dangasaning sarguzashtlari” pesalari teatr sahnalarida qayta-qayta namoyish qilinmoqda.

“Dangasaning sarguzashtlari” asarining qahramoni oʻzining ishyoqmasligi, qoʻrs-qoʻpolligi bilan doʻstlaridan ajralib qolgan. Bola xomxayollik bilan yashaydi, oʻqish, izlanish, mehnat qilish, kattalarning yumushlariga koʻmaklashishni oʻziga ep koʻrmaydi.

Asar soʻngida Nusrat bobo Dadavoyga nisbatan juda oʻrinli gapni aytadi:

Mehrin qoʻysin mehnatga,

Etar shunday niyatga!

Ha, bu gap hammaga tegishli, hamma birdek mehnat qilsa, oʻqisa, oʻrgansa faqat foyda koʻradi, murodi hosil boʻladi.

Hozirgi zamon oʻzbek bolalar badiiy adabiyoti bilan birga bolalar adabiyotshunosligi va adabiy tanqid ham pogʻonama-pogʻona oʻsdi, rivojlandi. Bir qator darslik, qoʻllanma, majmua, monografiya, kitoblar yozildi. Oʻnlab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

Bu sohaning takomilida A. Suyumov, Oʻ. Rashid, S. Mamajonov, M. qoʻshjonov, H. Abdusamadov, M. Yunusov, B. Imomov, P. Shermuhammedov, O. Safarov, X. Egamov, S. Irisxoʻjaeva, S. Matjonov, q. qahramonov kabi koʻpgina adabiyotshunoslarning xizmatlarini alohida taʼkidlab oʻtishga toʻgʻri keladi.

II BOB. MUSTAQILLIK DAVRI BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARI

2.1. Xudoyberdi To`xtaboev, Farhod Musajon va bolalar kitobxonligi

Hozirgi zamon o`zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastika janrlarining rivojlanishiga katta hissa qo`shib kelayotgan talantli adiblardan biri Xudoyberdi To`xtaboevdir.

Xudoyberdi To`xtaboev 1932 yilning 17 dekabrda Farg`oni viloyatining O`zbekiston rayoniga qarashli Kattatagob qishlog`ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi ham hamqishloq bolalarga qo`shilib poda boqdi, er chopdi, paxta terdi, xullas, qishloqda bo`ladigan hamma mehnatlarda holi-qudrat ishtirok etdi, hayot nimadan iborat ekanligini yoshligidagoq bila boshladi.

Bo`ljak adib vatan urushi yillarida o`qishni yig`ishtirib qo`yib, dalada ketmon chopdi, hisobchilik qildi, mashaqqatli mehnat bilan suyagi qotdi.

Qo`qon pedagogika bilim yurtini muvoffaqiyatli tamomlagan X. To`xtaboev ona qishlog`ida muallimlik qilar ekan, ilmga cheksiz ishtiyoq uyg`onadi. Shuning uchun ham u o`qituvchilikni tashlab, Toshkent davlat dorilfununiga o`qishga kirdi. Bu erda Alisher Navoiy, Bobur, g`. g`ulom, Oybek, H. Olimjon, A. qahhor asarlarini sevib o`qidi, o`rgandi.

Universitetni tugatib, Bog`dod rayonida o`qituvchilik qildi. Ilmiy bo`lim mudiri, direktorlik lavozimlarida ishlab, yoshlarni ilm-fan nurlaridan bahramand etish ishlarida faoliyat ko`rsatdi. She'riy mashqlari vaqtli matbuot sahifalarida e`lon qilina boshladi. Bu esa bo`ljak adibni markazga – Toshkentga ijodiy ish bilan

jiddiy shug'ullanishga chorlar edi. Shunday ham bo'ldi. U 1958 yilda Toshkentga ko'chib keldi. "Toshkent haqiqati" gazetasiga ishga kirdi.

X.To'xtaboev bolalikdan to'g'ri so'z, halol, pok va mehnatsevar bo'lib o'sdi. Gazetada ishlar ekan, ba'zi nopok odamlarni ko'rib, ularning qilmishlarini hazm qila olmadi. Bunday kishilarning sir-asrorlarini fosh etishga, el-yurt o'rtasida munofiqlarning yaramas tomonlarini ochib tashlashga qaror qildi. Bu borada unga feleton janri qo'l keldi. 1962 yilda respublikamizning otaxon gazetasi – "O'zbekiston ovozi" ("Sovet O'zbekistoni")ga feletonchi bo'lib ishga o'tdi. Bu erda 300 dan ziyod feleton yozib, o'zini so'z ustasi ekanin ko'rsatdi.

"Hadik", "Tilxat", "Ona", "Xarakteristika", "Bevaqt aytilgan azon", "Domlaning uyiga o't ketdi", "Maxsus topshiriq", "Jonginam, shartingni ayt" kabi kattalar uchun qissa va hikoyalar yozgan X. To'xtaboev bolalar uchun ham hikoyalar yarata boshladi. Uning "Birinchi daraxtim", "qochoqlar", "qizg'anchiq", "Dadajon, yozmang!", "Kelvordim, dada", "Vali bilan Salim", "Shoshqaloq", "Yaxshi-yaxshi" singari o'nlab hiqoyalari yosh kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

"Kichkina rais" hikoyasining qahramoni kichkintoy o'quvchi bola. Lekin Foziljoning xatti-harakati, intilishi, paxta dalalarini sergaklik bilan ko'rishi, kuzatishi, fikr yuritishi raislarga xos.

Foziljonda ona zaminga, odamlarga nisbatan qiziqish ta'sirli chizilgan. Kimsasiz, g'irt etim bola o'z qishlog'i, atrofidagi odamlar bilan sevinib, quvonib yashaydi. O'zini ularning bag'rida erkin his etadi.

Xudoyberdi To`xtaboevda yozuvchilikka ishtiyoq uyg`otgan ham, qobiliyatining shakllanishida muhim rol o`ynagan, asarlariga qaytarilmas rang va jilo bergan narsa hayot, vaqtli matbuot, redaksiyadagi qaynoq ijodiy muhit va qunt, chidam bilan o`qish, o`rganish, o`z ustida ishlash bo`ldi.

Hayotda turli harakterdagi odamlar ko`p bo`ladi. Biroz yaxshilik qilaman deb yomonlik qilib qo`yganini o`zi ham sezmay qoladi. Birov o`zini jamoat uchun g`oyat foydali odamman deb o`ylaydi, aslida esa zararkunanda bo`lib chiqadi. Yana birov bilar-bilmas har narsaga aralashaveradi, o`rtaga tushadi, so`z beradi, lekin baribir men haqman, shunday qilish kerak deb biladi. Ana shunday kishilarga bag`ishlangan “Jonginam, shartingni ayt” qissasi Xudoyberdi To`xtaboevni hajvchi sifatidi keng kitobxonlar ommasiga tanishtirdi.

Xudoyberdi To`xtaboev uzoq yillar feletonchi bo`lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o`rganadi. Bunday shikoyatlarga sabab bo`layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intiladi. Davrdan orqada qolgan, sarqit deb atalgan illatlar botqog`iga botgan, molu dunyoga hirs qo`ygan shaxslar haqida talay feletonlar yozdi. “Sariq devni minib”, “Sariq devning o`limi” nomli asarlari ana shu faktlarni umumlashtirish asosida yuzaga keldi, desak to`g`ri bo`ladi.

Ma'lumki, hajviy qissalarimiz barmoq bilan sanarlidir. “Kalvak maxsum”, “Toshpo`lat tajang”, “Tirilgan murda”, “Shum bola”dan keyin ancha vaqt bu janrda aytarli asar yaratilmadi. Keyingi yillarda Abdulla qodiriy va g`ofur g`ulomlarning an'analarini Xudoyberdi To`xtaboev davom ettirib, bu “bo`shliq”ni to`ldirishga harakat qildi.

Xudoyberdi To`xtaboev bolalar uchun asar yozayotgan paytda, albatta o`z o`quvchisini ko`z oldiga keltirib yozadi. “Olti yoshli bolaga aytayotgan gapingizo`n to`rt yoshli o`smirga aytadigan gapingizdan albatta, farq qilishi kerak” deb ta`kidlaydi. Yozuvchining bolalar va o`smirlarga atab yozgan asarlarining qiziqarli, o`qimishli, jozibali bo`lishining asosiy sabablaridan biri ham shu. Shuning uchun ham Xudoyberdi To`xtaboevning birinchi yumoristik-sarguzasht qissasi bolalar hayotidan olingan “Sehrli qalpoqcha” tez orada bolalar hurmatiga sazovor bo`ldi va uni jamoatchilik juda yaxshi kutib oldi.

Yozuvchining yumorga moyilligi, oddiy vaziyatlardan ham kulgu chiqara olish iste'dodi ilgari asarlariga nisbatan bu asarida yana ham chuqurroq sezildi. “Sariq devni minib” asarini qiziqarli suyujet asosiga quradi, asarning hikoyachisi-bayonchisi qilib undagi barcha voqealarning ishtirokchisi, guvohi bo`lmish Hoshimjonni qo`yadi, tilga olinadigan voqealar uning tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi Hoshimjonning hikoyasi orqali uning hayot yo`li sarguzashtlarini, o`ziga xos xarakteri va psixologiyasini atroflicha ochib beradi. Shuningdek, Hoshimjon xarakterida Xo`ja Nasriddinning va xalq ertaklaridagi “tegirmonga tushsa butun chiqadigan” zukko bolalarning fazilatlarini yaqqol mujassamlashganligini ko`ramiz.

“Sariq devni minib”da o`qish, ilm cho`qqilarini egallash uchun va insonning o`z orzusi, ezgu niyatiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan zamonimizda yashashiga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan, hayotda engil-elpi yo`l axtargan va adashgan bolalar - Hoshimjonlar kulgu ostiga olingan.

Hoshimjon dehqon oilasidan chiqqan, sho`xligi olamni buzadigan bir bola. U hayotdagi ko`p narsaga mehnatsiz, qiyinchiliklarsiz, oson yo`l bilan erishgisi

keladi. Mehnatsiz va ilmsiz ham kishi istagan narsasiga erisha olishi, katta obro' o'rttirishi mumkin, deb o'ylaydi. O'z fikrida qat'iy turgan Hoshimjon muddaosini amalga oshirish uchun buvisi aytib bergan ertakdagi sehrli qalpoqchani izlashga tushadi, uzoq izlanishlardan keyin istagan ishini hech qanday mashaqqatsiz bajarishga yordam beradigan sehrli qalpoqchani tashlandiq molxonadan topib oladi. Endi u o'zini orzularga batamom erishadiganday his etadi. "Ortiqcha" fanlarni dars jadvalidan chiqarishni rad etgan direktor, har xil vazifalar berib "miyasini qotiradigan" o'qituvchilariga o'qimasdan ham har qanday kasb egasi, mashhur odam bo'la olish, ko'krak to'la ordenlar bilan shon-shuxratlar, katta obro'ga ega bo'lish mumkinligini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ladi va shu maqsadda sehrli qalpoqcha bilan safarga chiqadi. Shunday qilib, uning sarguzashtlari boshlanadi.

Ming afsuski, sehrli qalpoqcha bu borada Hoshimjonga ko'mak berolmaydi. Sehrli qalpoqcha muhayyo etgan imkoniyatlar har safar kutilmagan ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelaveradi, Hoshimjonning baxti endi kulay deb turganda ishining pachavasi chiqib qolaveradi. U davlat xo'jaligida agronom bo'lib ham, "shoirlik qilib" ham, qurilishda muhandislik ham, qo'g'irchoq teatrida artistlik qilib ham ko'radi, mashhur sayohatchi sifatida butun dunyoni kezmoqchi ham bo'ladi. Lekin hamma erda ilmining, tajribasining yo'qligi ishning pachavasini chiqaraveradi. Hoshimjon qaerga bormasin, qanday ish qilmasin provardida sharmandai-sharmisor bo'ladi. Uning agronomlik va muhandislik "faoliyati" jinoyatga olib keladi, qamalishiga sal qoladi, shoir bo'laman deb rasvo bo'ladi, "ulug' artist" teatrdan quviladi.

Qissada Hoshimjon o'z sayohati davomida qanchadan-qancha ajoyibotlarning, g'aroyibotlarning guvohi bo'lib, qizib, kulguli sarguzashtlarni boshidan kechiradi. U o'qimay, mehnat qilmay, o'z ustida ishlamay juda ko'p narsalarga erishmoqchi bo'ladi, lekin u hech narsaga erisha olmaydi. Chunki, unga ilmsizligi pand beradi.

Yozuvchi Hoshimjon obrazini butun qirralari bilan ochishga uringan, bolalarga xos o'yinqaroqlik ham, soddaligu beg'uborligi ham, g'ururlik, to'g'riso'zlik, shumlik, biroz maqtanchoqlik, xatto o'rinda yolg'onni ham do'ndirib yuboradigan, o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatishga intilish odatlari, bolalarga taqlidchilik, dovyurak, epchil va ruhiy tetiklik, xafachilik va ruhiy tushkunlikdan yiroqlik Hoshimjon xarakteriga xos xususiyatdir.

Xudoyberdi To'xtaboevning "Sariq devning o'limi" sarguzasht romani uch qism ("O'rtoq polkovnik", "Sariq devni quvib", "Sariq devning o'limi yoki olam guliston bo'lgani") dan iborat. Bu roman asosida ham Hoshimjon sarguzashtlari yotadi. Kitobni o'qib uning yangi sarguzashtlaridan habardor bo'lasiz, sehrli qalpoqcha yana madadga keladi, ajoyib-g'aroyib karomatlar ko'rsatadi. U Hoshimjonga jiddiy masalalarda – o'g'ri, muttaham, tekinox'rlarni fosh etishda yordam beradi.

Endilikda Hoshimjon aynan avvalgi o'yinqaroq Hoshimjon emas, balki sakkiz yillik maktabni bitirib, ulg'ayib, bir muncha quyilib, esi kirib, oq-qorani tanib qolgan yigitcha. Endi u o'z hayoti, taqdiri, jamiyatga foyda etkazadigan odam bo'lib etishish haqida jiddiy o'ylaydi, biror kasb egallash haqida bosh qotiradi. Boshda sartarosh bo'ladi. "Bilasiz-ku, bir ishga ahd qilsam, uni oxiriga

etkazmaguncha qo'ymaydigan odatim bor. Jonimni qiynab bo'lsa ham maqsadimga erishaman", deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog'laydi. Keyin militsiya maktabiga kirib o'qib, uni birirgandan so'ng militsionerlikka ishga o'tadi. Kitobdagi barcha voqea-hodisalar, sarguzashtlar Hoshimjonning ana shu militsionerlik nuqtasidan boshlanadi, hamma gap-so'zlar qahramonning shu kasb-kori bilan bog'liq holda davom etadi.

Romanda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida militsiya polkovnigi Salimjon, uning madadkori Hoshimjon, yomonlik, eskilik ramzi tarzida Odil battol gavdalanadi.

Ular o'rtasida tinimsiz shiddatli kurash ketadi, Odil nihoyatda makkor, u Salimjon boshiga ko'p og'ir savdolar solgan, uyiga o't qo'ygan, uning yakka-yu yolg'iz farzandining qo'liga to'pponcha tutqazgan, jinoyatga etaklagan.

Asar provardida butun umri xalqqa, yaxshi odamlarga zarar etkazish bilan shug'ullangan Odil battol va uning hamtovoqlari qonuniy mag'lubiyatlarga uchraydi, haqiqat, adolat, ezgulik g'olib chiqadi.

Xudoyberdi To'xtaboev o'z romanida yulg'ichlarga, qalloblarga qarshi kurashda butun xalq bir kishiday bo'lib birlashsa, bu ishni butunlay o'z qo'liga olsa, Odil battollarga qiron keladi, ulardan nom-nishon ham qolmaydi, degan fikrni o'rta tashlaydi.

“Sariq devni minib” qisasi va “Sariq devning o'limi” romanining eng yaxshi fazilatlaridan biri tilining shiradorligi va o'ynoqiligidir. Muallif bosh qahramon Hoshimjonning tilini alohida e'tibor bilan ishlagan. Bu til nozik qochirimlarga boyligi va jonliligi, shu bilan birga bolalar tiliga mos holda soddaligi

bilan ajralib turadi. qahramonning xarakteri uning soʻzlaridan shundoqqina bilinib turadi.

Fantastik-sarguzasht janri bolalar adabiyotining eng qiziqarli janrlaridan biridir. Bunday asarlar bolalarning ongi va psixologiyasiga kuchli taʼsir koʻrsatadi, ularni oʻqishga, oʻrganishga, izlanishga oʻrgatadi, jamiyatimizning faol quruvchilarini tarbiyalashga yordam beradi.

“qasoskorning oltin boshi”. Toʻrt qismdan iborat boʻlgan bu romanda 1904-1907 yillarda Samarqand gubernasida mehnatkash xalqning boylar va hokimlar zulmiga qarshi kurashi tinimsiz xarakati, ularga jasoratli Nomoz Primqul oʻgʻli rahbarlik qilganligi hikoya qilinadi.

Asar markazida bosh qahramon – tarixiy shaxs, xalq qasoskori Nomoz taqdiri yotadi. “qasoskorning oltin boshi” tarixiy biografik roman emas, shuning uchun ham muallif Nomozning hayotini batafsil yoritib berishni maqsad qilib olgan emas. Lekin adib oʻrni-oʻrni bilan uning hayotiga doir maʼlumotlar berib borgan. Bu maʼlumotlar uning harakterini tushinib olishda kitobxonga yordam beradi.

Nomoz faqat jismonan emas aqlan ham etuk. U haqiqat uchun qasoskor, qoʻrqmas, tadbirkor, ochiqkoʻngil qahramon sifatida gavdalantiriladi. U atrofida oʻzi kabi dovyurak yigitlarni toʻplab, zulmkorlarga qarshi kurashga undaydi.

Halolligi, mardligi, adolatligi, etimparvarligi uchun xalq Nomozni yaxshi koʻradi va Goʻroʻgʻliga qiyos qiladi: “Goʻroʻgʻlibek Nomozboy qiyofasida paydo boʻlgan emish. Afsun oʻqisa koʻzdan gʻoyib boʻlib qolarmish. Undan oʻq oʻtmas emish, qilich chopmas emish...”

Nomozning mardligi, jasorati xalq qalbida mangu yashab kelayotganligi “qasoskorning oltin boshi”da yaxshi chizib berilgan.

Talantli bolalar adibi Xudoyoberdi To`xtaboevning “Sir ochildi”, “Aka-uka”, “Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganliklari haqida jaji qissa”, “Besh bolali yigitcha”, “Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarlar jangi”, “Mungli ko`zlar” kabi yirik asarlarining yuzaga kelishi o`zbek bolalar adabiyotining katta yutug`i hisoblanadi.

O`zining qisqa xajmli va xayajonli hikoyalari, mazmundor qissalari, kichkintoylarni to`lqinlantiradigan pesalari bilan bolalarning quvonchiga quvonch ulashib kelayotgan qalamkashlardan biri Farhod Musajon 1933 yilda Toshkent shahrida tug`iladi. 1956 yilda ToshDuning Sharq fakultetini tamomlaydi. Bir necha yil O`zbekiston radiosida, “O`zbekiston madaniyati” gazetasida, “g`uncha” jurnalida mehnat qiladi. 1966 yildan esa “O`zbekfilm”da muharrir, bosh muharrir vazifalarida ishlab kelmoqda.

Farhod Musajonning ilk asarlari 1955 yilda e`lon qilingan. Shundan so`ng “Sluchay v gornom kishlake” (1958), “Daradagi qishloqda” (1960), “Turdi, vilosepid, qizil bog`ich va men”, “Oftobni quvlab” (1970), “Chin do`stlik” (1976), “Chevar qiz” (1982), “Buloq suvi” (1982), “Turdi, vilosepid va men” (1983), “Glotok rodnikovoy vod1”, “Tekin tomosha” (1989) kabi kitoblarining maydonga kelishi bolalar uchun katta bayram bo`ldi.

Farhod Musajon barcha yoshdagi bolalar uchun yozadi. Uning kitoblari orasida maktabgacha tarbiya yoshidagi, maktab yoshidagi kichik hamda o`rta va katta yoshdagi bolalarga bag`ishlangan asarlarini ham uchratish mumkin. Adibning

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlab yozgan jaji hikoyalari bog'chalar dasturidan o'ziga xos o'rin olgan.

Ayonki, bu davr bolalar kitobxonligi ota-onalar, tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Bolalar o'zlari tinglagan asarlari yordamida atrof-muhit bilan tanisha boradilar. Ona yurtga, tabiatga muhabbat hislatlari mehnat qilish va mehnat ahlini hurmat qilish kabi fazilatlar shu yoshdan tarkib topa boshlaydi. Turmushda qizg'anchiq bo'lmaslik, kasb-hunar egasi bo'lishga intilish, kattalarni hurmat qilish kabi ijobiy fazilatlar ham shular jumlasiga kiradi.

Bu davr bolalarining pedaagogik-psixologik xususiyatlarini yaxshi o'rgangan Farhod Musajon ularga bag'ishlab, "Eng yaxshi bobo", "Shodiyona kun", "Shiqildoq", "Pahlavon va nimjon", "Sovg'a", "Ajoyib buzoqcha", "Yaxshilik", "To'lab ber", "Varrak", "Dog'" kabi o'nlab hikoyalar yaratgan.

Adibning "Varrak" asari mazmuni oddiygina varrak yasash voqeasi asosida qurilgan. Asarda kichkintoylarni bolalikdan boshlab mustaqil harakat qilishga chaqiriladi.

Ana shunday jozibali asarlaridan yana biri "Eng yaxshi chana"dir. Bu hikoyada qo'li ochiq, bag'ri butun bo'lishlik, qizg'anchiq bo'lmaslik kabi hollar kichkintoylar ongiga etkaziladi.

Latifjonga dadasi chana olib kelib beradi. quvonchdan bolaning boshi ko'kka etay deydi. Latifjon boshida ancha qizg'anchiq bo'ladi. Shuning uchun chanada bitta o'zi uchadi. Boshqalarni chanaga yaqinlashtirmaydi, unga birovning qo'li tegib ketsa, chanani ko'tarib uyiga chopadi.

Latifjonning dadasi o'g'lidagi bunday qizg'anchilikni payqaydi, lekin unga pand-nasihat qilib o'tirmaydi. Aksincha, quyidagi ibratli hikoyatni keltiradi:

- Bilasanmi, - dedi dadasi o'g'liga, - men bu ajoyib chanani qaerdan oldim? Bunaqasi magazinda sotilmaydi, bu buyurtma bilan qo'lda yasalgan chana. Yoshi oltmishda. Ha, oltmish yil biron bitta og'aynimning adasi olib bergan ekan. Og'aynim o'sha paytida sendek ekan. Chananing chiroyliligini ko'rib uchishga uning ham ko'zi qiymabdi. Kattaroq bo'lganimda ucharman, hozir bolalar tortib olib eskitib qo'yishadi, deb asrab yuraveribdi. Oradan yillar o'tibdi. Bir kun qarasa bolaligi tugab chol bo'lib qolibdi. Endi unga chana kerak emas edi, chunki chol odam uyalmasdan chana uchadimi?! Og'aynim chanani menga sovg'a qilar ekan. Beg'ubor bolalik chog'imda mazza qilib ucholmadim, ishqilib sening o'g'lingga yaxshi xizmat qilsin dedi. Shunaqa o'g'lim, qizg'anchiq odam zavqdan mahrum bo'ladi!

Latifjon boshida dadasining bu gaplariga tushuna qolmaydi. Yuragining allaqaeri jaz etgandek bo'ladi. Nihoyat u dadasiga yuzlanib:

- Ertadan boshlab ayamasdan uchaman, - dedi.

Adibning "Sovg'a" hikoyasi ham maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlangan. Asarla bolalar mehnatkash bo'lishiga da'vat etiladi. Oqiljonning gul ekishni, uni mehr bilan parvarish qilishi kichik kitobxonda katta ta'surot qoldiradi.

"Turdi, qizil bog'ich va men" hikoyasi uzoq yillardan beri yosh kitobxonlarning sevimli asarlaridan biri sifatida e'zozlanib kelinadi.

Hikoyada ozoda bo`lish, shahar tozaligi uchun kurashish bosh masala qilib qo`yiladi. Turdi va g`iyos aka kabilarning shahar tozaligida faol qatnashmaganliklari fosh qilinadi.

Xullas, Farhod Musajon o`zining maktabgacha va maktab yoshidagi kichik bolalarga bag`ishlab yozgan hikoyalarida salmoqdor firlarni sodda, bolalarbop shaklda aytadi. Adib nasixat qilish yo`lidan bormaydi, aksincha, bolalar hayotida ko`p uchrab turadigan oddiy voqealarni tavirlaydi va aytmoqchi bo`lgan muhim gaplarini ana shu voqealar mag`ziga singdirib yuboradi.

Farhod Musajonning “Orzuga ayb yo`q”, “Bo`sh kelma”, “Aliqulov”, “Buloq suvi” va boshqa qissalari o`zbek bolalar adabiyotida muhim o`rinda turadi. Farhod Musajon dramaturg sifatida ham yoshlarning mehrini qozongan. “Hayolparastlar”, “Oq kautarlar”, “Sabil qoldi”, “O`g`limni qaytarib bering” pesalari shular jumlasiga kiradi. Bular orasida ayniqsa, “O`g`limni qaytarib bering” asari mashhur bo`ldi.

Dramaturg uning nomini o`zlashtirib, “Najod istab” deb qaytadan ishladi. U Hamza nomidagi akademik drama teatrida muvaffaqiyat bilan qo`yildi. Dushanbe, Olmota shaharlarida Tataristonda sahna yuzini ko`rdi.

Pesada asosan bola tarbiyasida ota-onaning o`ynaydigan beqiyos katta roli haqida gap boradi.

Farhod Musajonning kattalarga bag`ishlab “Bahor nafasi”, “Bu ko`zlarga ishonsa bo`ladi”, “Xotin kishining rayi”, “Ko`r shofyor”, “Zo`raki kashanda”, “Nozik masala”, “Kalla-pocha”, “Himmat”, “Bog` ko`cha” kabi kitoblar yozgan.

2.2. Latif Mahmudov, Miraziz A'zam va bolalar kitobxonligi

1935 yilda Toshkent shahrida dunyoga kelgan, Toshkent davlat universitetini tamomlagandan so'ng yigirma yilga qadar vaqt mobaynida O'zbekiston radiosida mehnat qilgan va ayni kunlarda "Kamalak" nashriyotida bo'lim mudiri bo'lib ishlayotgan Latif Mahmudov 1961 yilda o'zining ilk kitobi - "Chinor" hikoyalar to'plami bilan bolalar adabiyotiga kirib kelgan edi. Mana o'shandan beri u ham nasr, ham dramaturg sifatida bolalar qalbiga quvonch bag'ishlab kelmoqda.

Latif Mahmudov asarlarining qahramonlari o'qishda, jismoniy mehnatda, ahillikda, oqko'ngillikda, bir-birlariga g'amxo'rlik va mehribonlikda barchaga namuna bo'la oladigan bolalardir.

"Chinor" hikoyasining qahramonlariga Salim boboning har kuni ertalabdan kechgacha chinorning tagida o'tirishi boshqacha tuyuladi. Ular chinor ostida bir yashirin sir bor deb o'ylaydilar.

Ma'lumki, bolalar har bir narsaga qiziquvchan bo'ladilar. Ular o'zlari uchun noma'lum bo'lgan olamning sir-asrorlarini tezroq bilib olishga, uning poyoniga etishga intiladilar. Shokir ham, Vali ham ana shunday bolalar toifasidan. Shuning uchun ular chinor va uning ostidagi supaga juda qiziqib qoladilar. Salim otaning kechayu kunduz supada o'tirishi ularni hayratga soladi.

Aslida chinorda ham, supada ham hech qanday sir yo'q edi. Boboning yakkayu yolg'iz o'g'li bo'lib, u shoir tabiat yigit bo'lgan. Bir vaqtlar bu chinor oldida bir ayol anhorga qulab tushadi. Uni Salim otaning o'g'li anhordan olib chiqadi. Ammo o'zi anhordan chiqolmay suvga cho'kib halok bo'ladi. Shu sababli

chol chinor ostida supa ustida uzoq o`tirib o`g`lidan qolgan yodgorlik – kitobini qayta-qayta o`qiydi.

Bundan behabar bo`lgan bolalar g`or qazib, bu erdagi sirni bilib olmoqchi bo`ladilari. Kutilmaganda bolalarning g`ori o`pirilib, supa qulab tushadi. Bu erda hech qanday sir ham, tarix ham yo`q ekanligini bilgan bolalar ayniqsa boboning supa o`pirilib tushganidan keyingi holini ko`rib o`zlarini-o`zlari kechira olmaydilar.

Chinor hamon sevib o`qiladigan bolalarni yaxshilikka, keksalarga ko`mak berishga, ajayib inson bo`lib kamol topishiga da'vat etib kelmoqda.

Kimki jismoniy mehnatga berilsa, badantarbiya hamda sport bilan oshno bo`lsa, u hayotda sog`lom va tetik bo`ladi, oldiga qo`ygan niyat-maqsadiga erishadi, tengqurlari o`rtasda obro`-e'tibor qozonadi. Yoki buning teskarisi bo`lsa, unday bolalar hech narsani uddasidan chiqa olmaydi deb, o`qishga ham, sportga ham, hayotda ham boshqa bolalardan ortda qolib ketishga o`zlari sababchi bo`ladilar.

Latif Mahmudovning “Darvozabon” hikoyasining qahramoni Orif yuqorida ta'kidlab o`tganimizdek ikkinchi toifadagi bolalar sirasiga kiradi.

Boshqa bolalar turli oromgohlarda, dam olish maskanlarida yozgi ta'tilni ko`ngildagidek o`tkazib, sport bilan shug`ullanib, yangi kuch-quvvat to`playdilar, har tomonlama chiniqadilar.

Orif-chi? U na jismoniy mehnat qiladi, na sport bilan shug`ullanadi, na badiiy kitob o`qiydi. Kechasiyu kunduzi ovqat eb, xomsemiz bo`lib qolganligini Latif Mahmudov bolalarga ta'sir qiladigan darajada chizib beradi.

Latif Mahmudov hikoyalari mavzui jihatdan rang-barang. Ularning hammasida ham bolalarning qaynoq hayoti ufirib turadi.

Latif Mahmudov o'zbek bolalar adabiyotida qissa janrini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shib kelayotgan talantli adiblardan biri hisoblanadi. Uning "Eski dutorning sirlari", "Tog'dagi bolalar", "Tog'da otilgan o'q", "Ikki dangasaning sarguzashtlari" kabi qissalarini o'qimagan yosh kitobxon topilmasa kerak.

Adib o'z qissalarida bolalarning ezgu niyat, orzu va intilishlarini topib yozadi. qissalarda a'lo va yaxshi o'qishga intilish, kattalarni g'urmat qilish va kichkintoylarga yordam qo'lini cho'zish, jonajon o'lkaga fidokor kishilar bo'lib kamol topish kabi masalalar yotadi.

"Ikki dangasaning sarguzashtlari" qissasining qahramonlari – Mirvali, Botirlar oddiy, boshqalardan farq qilmaydigan bolalar, ammo xatti-harakatlari, intilishlari bir jaxon. Ikkalasi ham yomon o'quvchilardan emas. Xulq-odoblari ham boshqalarga manzur bo'ladigan bolalardan.

Hamma gap o'quvchilarni o'z farzandidek yaxshi ko'radigan, ularni ko'ziga xatto cho'p tushishini istamaydigan adabiyot muallimi Alijon Valievichni Botirning dadasiga maktub yozib berishidan boshlanadi. Alijon Valievichning bolalar ma'qul ko'rmaydigan bir odatini yozuvchi ta'sirchan qilib ishlaydi. Buning Mirvali tilidan berilishi yanada ishonchli chiqqan: "Siz Alijon Valievich juda badjahl odam ekan deb o'ylamang. Alijon Valievich birovga qattiq gapirmaydi, urushmaydi, qovog'ini ham solmaydi. Xatto, aybingizni ham aytmaydi. Gunohingiz og'ir bo'lsa ikki enlik xat yozib konvertga soladi va yaxshilab

elimlaydi, sizning oppoq oqarib ketayotganingizdan zavqlanib, beparvolik bilan qo`lingizga tutadi...

- “Shuni dadangizga berib qo`ying”.

Botir o`qituvchining qo`lidan maktubni olar ekan dahshatga tushadi, nima gunoh qilib qo`yganini bilmay o`y-hayolga botadi.

Ham fikr, do`st, sirdosh, yursa-tursa birga bo`ladigan Mirvali bilan o`qishida yurish-turishda yo`l qo`ygan xatolarini ko`p o`ylashadi. Ma'lum bo`lishicha, ular kunlardan bir kun chollarga salom bermay o`tishgan, qachonlardir tanaffusda bir marta o`quvchilardan yashirib papiros chekishgan, dars tayyorlamay kelishganda sinfdoshlaridan uyga berilgan vazifani ko`chirishgan. Ammo bular xatga asosiy sabab mumkin emas deb o`ylashadi.

O`qituvchining maktubini olgan bolalar o`z ayblarini o`zlaridan qidirishadi va gunohlarini yuvish maqsadida o`tkinchi bir cholning qopini ko`tarib uning uyiga olib borib berishlari yosh kitobxonda katta ta'surot qoldiradi.

Keyinchalik maktubdagi: “-Zavodingizga ekskursiya uyushtirmoqchimiz, paxta terish mashinasi haqida gapirib bersangiz, qachon borsak bo`ladi?”, deb so`ralgan xat mazmunidan habardor bo`lgan ikki do`st terilariga sig`may quvonishadi hamda o`z xato va kamchiliklarini tuzatib olganliklaridan behad shod bo`ladilar.

Latif Mahmudovning “Cho`qqidagi lolalar” qissasida ham g`aroyib, favqulodda va g`oyatda qiziqarli voqea hikoya qilinadi. qissada sirli yo`lovchilar ham shahar hovlilaridan birida sodir bo`lgan g`alati voqea ham, don-daraksiz

g'oyib bo'lishlar ham, ayniqsa, izlashlar ham bor. qissaga qizbuloq haqidagi afsona chuqur singdirib yuborilgan. Ana shu boisdan ham qissa qiziqib o'qiladi.

Latif Mahmudov o'zbek bolalar adabiyotida drama janrini rivojlantirishda katta rol o'ynab kelayotgan san'atkor sifatida ham e'zozlanadi.

Dramaturgning “Ey, attang”, “Muhim topshiriq”, “Dangasaning sarguzashti”, “Haqiqiy o'g'ilbola”, “Ali bilan Vali”, “Burgut olib qochgan bola” asarlari uzoq yillardan beri yosh tomoshabinlar qalbiga quvonch bag'ishlab kelmoqda.

Latif Mahmudov dramalarida qahramonlar ko'pincha o'zlarining a'lo xulq-odatlari, mehnatsevarliklari, o'qish va maktabni sevishlari bilan ajralib turadilar. Ba'zi hollarda esa ishyoqmaslik, dangasaliklari tufayli o'z tengqurlari davrasida qizarib qoladilar.

Hozirgi o'amon o'zbek bolalar she'riyatida shoir Miraziz A'zamning o'z o'rnini bor. Bu albatta, uning izlanishi, mehnatkashligi bolalarning va ularning adabiyotini qattiq sevishida. Ijodkor bolalar o'rtasidagi do'stlik, hamjixatlik, ona vatanga cheksiz muhabbat, odobli bo'lish, yaxshi o'qish uchun harakat qilish, kurashish kabi masalalarni ko'proq ochib berishga harakat qiladi.

Miraziz A'zam 1936 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Maktabda o'qib yurgan kezlari dayoq she'riyatga qiziqdi. She'riy mashqlarini quddus Muhammadiy va keyinchalik qudrat Hikmat boshchilik qilgan adabiy to'garakda sinovdan o'tkazgan, ijodiy izlashin, o'qish va izlanishni qizg'in davom ettiradi. Adabiyot va she'riyatga bo'lgan chanqoqlik uni ToshDuga etakladi. Adabiy mashqlari Bolalar va o'quvchilar gazetalarida “Gulxan” va “g'uncha” jurnallarida bosila boshladi.

Universitetni muvaffaqiyatli tamomlagan M. A'zam bir qator jurnal va gazetalarda ishladi. Shoirning “Metallurg”, “Aqlli bolalar”, “Senga nima bo'ldi?”, “g'alati tush”, “Er aylanadi”, “Erga dovruq solamiz”, “Bir cho'ntak yong'oq” kabi to'plamlari bolalar kitob jovonlaridan mustahkam o'rin olgan.

Miraziz A'zamning juda ko'p she'r, qo'shiq, ertak-dostonlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlangan. U har bir asarida bolajonlar uchun albatta, bir yangilik, bir yaxshi gap aytish ishtiyoqi bilan qaynab toshadi va buning uddasidan chiqadi. Masalan, “Er aylanadi” she'rini olib qaraylik. Bunday olib qarasangiz, bu bir oddiy gap. Axir necha asrdan beri u aylanadi, yana aylanaveradi, bu haqda qanday she'r bo'lishi mumkin, degan tushuncha hayolingizdan o'tadi. Lekin shexrni o'qiydigan bo'lsangiz sizning tasavvuringiz butunlay o'zgaradi. Murg'ak qalb u yoqda tursin biz kattalar ham urning aylanishi, onlarning o'tishi, shamolning esib turishi bilan o'sib ulg'ayishimiz, kamol topishimiz, bunyodkorlik ishlarimiz ko'z o'ngimizdan o'tadi. qilgan yaxshi-yomon ishlarimizni o'ylaymiz. “Er aylanadi” – xuddi shu haqda bahs yuritadi:

Asta-asta shamol esadi,

Asta-asta er aylanadi.

Asta-asta odam o'sadi,

Asta-asta er aylanadi.

Asta-asta ulg'ayar aql,

Asta-asta er aylanadi.

Asta-asta er aylanadi.

Asta-asta er aylanadi,

Asta-asta etilar naql

Meva pishar bir kun nogahon,

Asta-asta er aylanadi.

Asta-asta er aylanadi.

Birov “men!” deb elday eladi O`zligini tanir har inson,
Har kimga ham navbat keladi. Asta-asta er aylanadi.

Kichkintoylar ko`pincha hayot murakkabliklaridan behabar bo`ladilar. Ular kattalarning ko`magida, o`zlari tinglagan badiiy asarlari yordamida olam mo`jizalari, turmush bilan tanishib boradilar. Miraziz A'zamning “Bedananing buvisi” she'ri bu yoshdagi bolalarga juda qo`l keladi. Bu she'r xalq og`zaki ijodi an'analari ta'sirida yaratilgan. She'r misralari sodda, ma'no va mazmuni bog`cha bolalariga to`g`ri keladi

Yosh kitobxon she'rda bedanalarning turmush tarzi bilan yaqindan tanishib oladilar. Xuddi insonlar kabi ularning ham qavm-qarindoshlari, keksa-yoshlari bo`lishini, kasal-sog` yurishlarini buvi bedana kechmishlari orqali tushunib etadilar. Buvi dardga chalinib, og`ir kasal bo`lib qoladi. Tomog`idan ovqat o`tmaydi. Hammaning tinchligi, oromi buziladi. Har kim qo`ldan kelgancha unga madadkor bo`lishga intiladi. Bu epizod chiroyli va ta'sirli chizilgan:

Bedananing otasi bor ekan, nor ekan,
Onasi oriyat yor ekan, yor ekan.
Dori-darmon, o`t-o`lan keltirib, keltirib,
qari qushga tutishib, ichirib, edirib,
Aylanishib boshida turdilar, turdilar.
Sog`ayishni chorasini ko`rdilar-ko`rdilar,
Mittivoy ham qo`lidan kelgancha, kelgancha,
Suv tutdi buvisiga bilgancha, bilgancha.
Uch kunda tanda arib bor dardi, bor dardi

Buvijon boshini ko`tardi, ko`tardi.

Xursandlikdan ko`zlari yoshlandi, yoshlandi.

Sayroqilik qaytadan boshlandi, boshlandi.

Va-vaq, va-vaq,

Bit-bil-diq,

Va-vaq, va-vaq,

Bit-bil-diq.

Biz har doim bolalar adabiyotida o`y-o`ylash, hayol surish, o`zining uchqur hayollari bilan yashash haqida yozilgan asarlarini qizg`in qo`llab-quvvatlaymiz. Miraziz A'zamning ham "Hayol surish" she'rining qahramoni har bir narsani tezroq bilib olgigi, uning poyoniga etgisi keladi. Lekin u qancha o`ylamasin, hayol surmasin, aqliy tafakkuri hali to`la rivojlanmaganligi sababli ko`p narsalarni tushunmaydi, ojizlik qiladi. Ota o`g`lini uncha o`ylamaslikka chaqiradi. Otaning nasihati bilan bola o`zini tinchita olmaydi:

Qattiq o`ylayverma!-deydi yumshab

ota, -

Kattaroq bo`lganingda

anglarsan hammasini.

O`ylamay bo`larkanmi shularning barini odam?

O`ylamay yasholmayman,

masalan, hammasini.

Kun qisqa

qanday qilib kun chiqdi,

deb o`ylayman.

Tun cho`zilsa,

nega tun

cho`zildi,

deb o`ylayman.

Uni hayol qilaman,

buni hayol qilaman

o`ylayman,

Baribir

o`ylayman.

Miraziz A'zamning “Biz engamiz bo`ronlarni” she'ri bugungi
mustaqillikka juda qiyinchilik bilan kurashlar bilan etib kelganligimizni jarangdor
misralar bilan chiroyli ifodalab beradi

Bizni bosdi dovul, sellar-

Omon chiqdik bo`ronlardan.

Omon yashar botir ellar –

qo`rqmas vahshiy hayvonlardan.

Viqorli, muzli cho`qqilar ham

qolib ketar poyimizda

Jasur qo`shiq bizda hamda

Har bir kundan joyimizda

Shoir bu bilan chegaralanib qolmaydi. Hali oldinda qiladigan ishlarimiz, ulug` maqsadlarimiz borligini ta'kidlaydi bolalarni yuksak axloq-odobli bo`lishga, kattalarning ishlarini davom ettirishga chorlaydi:

Maqsadimiz tog`day ulug` –

Chambarchasdir tutash qo`llar.

Ozodlikning yo`li qutlug` –

Olg`a, do`stlar, og`aynilar!

Miraziz A'zamning “g`alati tush”, “Nurxon bilan Burxon”, “Ota bilan bola”, “Bir cho`ntak yong`oq”, (Turkum), “Alla”, “Bola va ona”, “Yutal bola” kabi she'r va qo`shiqlari bog`cha yoshidagi bolalarga bag`ishlangan.

“Asror”, “Erk qushi”, “Ona yurt osmonida”, “Antiq” kabi doston, ertak-dostonlari ham bolalarga katta qiziqish uyg`otib kelmoqda.

Miraziz A'zamning “Asror” dostonidagi Asror obrazida bolalarga xos jo`shqinlik, shijoat, mehnatsevarlik motivlari, haqiqiy o`quvchiga xos fazilatlar yorqin tasvirlangan. Shoir bu g`oyani ochishda kichkintoylar ongi va dunyoqarashidagi holatlarni to`qnashtirish, ularning narsa va voqealarga bo`lgan munosabatlarini solishtirishdan samarali foydalanadi.

Pilla qurti boqish dostonga asosiy mavzu qilib olinadi-da, o`quvchi yoshlarning bu sohaga qiziqishlari, bilimdonliklari mehnat farayonida ochib beriladi. Asarda Asrorning olijanob fazilatlarini – oqko`ngil, sofdil, qo`li ochiqligi ishonarli tasvirlanadi. Uning tut daraxtlarini sevishi, tabiatga g`amxo`rligi yosh kitobxonlar uchun didaktik qimmatga ega.

G`ayrat, Nor, Rahim, Ra'no obrazlari orqali qalbi qaynoq bir-biriga mehribon, jamoa ishi uchun fidoiy yoshlar gavdalantiriladi.

Bolalarning maktabda pilla qurti boqishlari – qo`shimcha soha – qishloq xo`jaligi ishlariga jon dildan yordam berishlari, fikr-mulohaza yuritishlari, biror ishga qo`l urishsa dadil harakat qilishlari kitobxonni xursand etadi. Chunonchi, asarning pillaqurt “Pillaqurtlarining lohas bo`lishi” bo`limi o`quvchida katta qiziqish uyg`otadi.

Pilla qurti boqiladigan xona xaddan ziyod isib ketgach, qurtlar barg emay qo`yadi. Shu daqiqada bolalarda yuz bergan holat: tushkunlik, xijolatpazlik, qurtlarga achinish hissi tasviri kichik kitobxonni cheksiz hayajonga soladi:

Pillachilar xonasin

Bosgan edi sukunat.

O`quvchilar churq etmas

qotib turishar faqat.

Shoir hayotiy lavhalar chizishda davom etadi. So`kichak engillatilib, xona ma'lum darajada sovutilgach, qurtlar yana asliga qaytadi, bir me'yorda barg eyishga kirishadi. Bolalar olam-olam quvonchga to`ladilar, shodlanadilar:

Bir-biriga qarashib

Bolalar jilmayadilar.

Xatar o`tgan bo`lsa ham

Xonadan jilmaydilar.

Shoirning “O`lmas qush” ertak-dostonida tasvirlanishicha, jodugarlik bilan bahodirlarning yostig`ini quritgan Chingizxonning go`zal kanizagi Sayxun

bo`ynida yashayotgan Nahang qassobning ham oromini buzadi. Jang maydonida ko`rgan Nahangning qilichi qo`lidan tushadi. qizning makriga uchib, uni sevib qoladi. Uning xotini qazo qilib, O`lmas va Olmas ismli farzandlari qolgan edi. Biroq ota o`g`li va qizidan kechib kanizakka uylanadi. Dostonda epchil qiz Olmosning ukasi O`lmas uchun otasi va o`gay onasidan o`ch olishni ancha qiziqarli va ishonarli tasvirlanadi.

Bolalar adabiyoti taraqqiyotiga katta ulush qo`shayotgan M. A'zam hozir yangi-yangi asarlar ustida ishlamoqda.

2.3. Tursunboy Adashboev, Qambar Ota va bolalar kitobxonligi

Hozirgi zamon o`zbek bolalar adabiyotining taniqli vakillaridan biri Tursunboy Adashboev 1939 yilda qardosh qirg`izistonning O`sh viloyatiga qarashli Olabug`a tumanidagi Saved Bilol qishlog`ida tug`ilgan. Toshkent davlat universitetini hamda M. Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti institutini bitirgan.

T. Adashboev universitetni tamomlagach, o`qituvchilik qildi. Tuman va viloyat gazetalarida ishladi. Hozir “Cho`lpon” nashriyotida xizmatda.

T.Adashboev “Olatog`-lolatog`” kitobida ta'kidlanganidek, ikki xalq farzandidir:

O`zbek, qirg`iz qoni singgan,

Sizga aytsam to`g`riman.

Shu boisdan ikki xalqning

Erka shoir o`g`liman...

Shu bois o`zbek va qirg`iz tillarida ijod qiladi. Uning “Kamolning olmasi” deb nomlangan birinchi kitobi 1967 yilda talabalik chog`idayoq nashr etilgan. Keyinchalik Toshkentdagi “Yosh gvardiya”, Bishkek shahrida “Mektep” nashriyotida “Biz sayohatchilar” (1969), “Ala Toluk bolomun” (1971), “Arslonbob sharsharasi” (1973), “Surnay”, “Nur daryo”, (1977), “Guldasta” (1979), “Olatog`-olatog`” (1982), “Oqbo`ra to`lqinlari” (1985), “Sovg`a” (1987), “Sichqonning orzusi” kabi kitoblari bosilib chiqdi.

Tursunboy Adashboev o`y o`ylashni, xayol surishni yaxshi ko`radigan, o`zlarining uchqur xayollari bilan yashaydigan bolalarni sevadi va ularni qattiq xurmat qiladi. Shuning uchun ham u bunday bolalar haqida ko`plab katta-kichik asarlar ijod qilgan. Ha, biz kichkintoylarning o`zlariga xos katta dunyosi mavjud ekanligini hamisha ham tushunavermaymiz. Ular doimo buyuk orzular, so`ngsiz umidlar bilan yashashadi, turli g`aroyibotlar bilan tanishishni istashadi. Uchqur xayollari yordami bilan Afrikaning inson qadami etmagan o`rmonlarida istiqomat qilayotgan fillar, maymunlar, ko`zoynak taqqan ilonlar bilan “so`zlasha” oladilar. Bir so`z bilan aytganda, bolalar doimo xayollar, sarguzashtlar olamida yashashni va shu olam orqali katta hayotning bosh yo`liga chiqib olishni orzu qilishadi.

Shu sababli, tabiiyki, kichkintoylar o`zlarining uchqur xayollarini boyita oladigan, ma'naviy zavq bera oladigan asarlarni o`qishni sevishadi. Shu xildagi asarlari orqali ular olamning “mo`jiza”lari bilan oshno bo`ladilar. Tursunboy Adashboev bu mavzuda o`nlab she'rlar bitgan.

Shoirning shunday she'rlaridan biri “Fazogir” kichkintoylarni o`ylashga, xayol surishga, o`zlarining tezkor xayollari bilan dunyoni kezishga, olamni sayyo-

tomosha qilishga chorlaydi. She'r qahramoni Akmaljonning ezgu maqsadi – fazogir bo`lish, samoda parvoz etib, o`zining dovyurak va bahodir ekanligini butun olamga doston qilishdir.

Ana shu havasmand bola uyqusida tush ko`radi, tushida skafandr va ketilar kiyib olib samoga parvoz qiladi. Shu narsa quvonchliki, tushida o`zi o`qigan ertaklardagi qahramonlar unga zo`r qiziqish va quvonch bilan boqishadi:

... Ko`rib Voyjonim	Sayohatu sayr deb,
Yoqasini ushladi.	Siltab qoldi qo`lini
Afrikada Barmali	Chipolino xayr, deb.
Tushgin desa tushmadi,	Shum tulkiga chap bergan
Italiya ustidan	O`sha mashhur bo`g`irsoq
Akmal uchib o`tarkan,	Va sehrli qalpoqcha
qarasaki Buratino	Ur to`qmog`u O`g`irsop
Sal burnini ko`targan.	Hayron bo`lib, lol qolib
Mana buni aytishar,	Akmaljonga boqardi.

She'rni o`qigan har qanday bolaning kayfiyati chog` bo`ladi. Tushida bo`lsa ham hech bo`lmasa Akmaljon kabi bir marta samoga uchish niyati tug`iladi. Buning uchun esa, albatta, yaxshi o`qish kerak ekanligini yana bir bor bilib oladi.

Hashar ota-bobolarimizdan qolgan bir ajoyib an'ana. Shoirning “Shanbalik” she'ri ana hasharga bag`ishlangan. Erta bahor kelishi bilan dala-dasht ko`m-ko`k bo`lib yashnab ketadi. Hamma dalaga chiqadi. Ko`chatlar ekish, dov-daraxtlarning ostlarini yumshatish ishlari qizg`in tus oladi.

T. Adashboev shanbalikning nihoyatda maroqli o'tganligini, bolalar shanbalikka katta hissa qo'shib, mehnat qilganliklarini:

Dov-daraxtni bog`bonlar,

Soch-soqolin qiyishdi.

Biz oqlagan daraxtlar

Oppoq paypoq kiyishdi, -

kabi misralarda tasvirlaydi.

Ma'lumki, nozik ta'b bolalar har doim ham kattalarning o'z ishlariga munosabat bildirishlarini istaydilar. Topog'on shoir ularning bu niyatlarini chiroyli qilib tasvirlaydi. Bu bilan bolalarni rag'batlantiradi, ko'ngillarni ko'taradi:

Rais bobo shod bo`lib,

qo`limizni qisadir:

Bu shanbalik tinchlikka,

Sizlar qo`shgan hissadir.

Shoir xalq og'zaki ijodiga murojat etib, "Kurash" degan yoqimli she'r yozadi. "Yiqilgan kurashga to'ymas", maqolini bolalar hayoti bilan bog'lab zamonga moslashtiradi.

Yiqitib qo`yding qasddan,

Bu hisobmas, tovonimni

Erga tayab turibman.

Men ham seni boplardim-u

Lekin ayab turibman...

T. Adashboev barcha bolalarning a'loch, rostgo'y, halol bo'lishlarini istaydi va bu haqda o'nlab she'rlar yozgan. Fikrimiz isboti tariqasida "Doniyorning bahonasi" she'rini ko'rishimiz mumkin. Doniyor qoloq o'quvchi, buning ustiga u yolg'onchi. Darsga borish o'rniga muzda xorib-tolguncha sirg'anib o'ynadi. Maktabga borgach, tobim qochib, shifokor qabuliga bordim, deb o'qituvchini aldaydi.

Muallim Doniyorning kiyim-kechagiga razm solib, uning yolg'on gapirayotganligini sezib qoladi. Sir fosh bo'ladi.

Shoirning "qo'sh qaldirg'och" she'ri bolalarda katta ta'surot qoldiradi. Bu she'rda qaldirg'och misolida bolalarni xuddi shu qushcha kabi mehnatkash bo'lishga, ahillikka chaqiradi.

Qaldirg'ochning uyasini ikki chumchuq egallab oladi. qaldirg'ochlarning yalinib-yolvorishlariga qaramay, chumchuqlar uyadan chiqmaydilar. Ikki o'rtadagi ziddiyat yanada kuchayadi:

Qo'sh qaldirg'och chug'irlashib,

Biri inni turdi poylab.

Ikkinchisi do'st-yorlarni,

Boshlab keldi parvoz aylab.

Endi ahvol tangligini,

Ikki chumchuq ko'rib turar.

Hasharchilar to'rt tomondan

In og'zini qo'rib turar.

Qaldirg'ochlar ishni boshlab,

Loyni elab, qo`shib somon

Eshik og`zini berkitdilar,

Oqibati bo`ldi yomon...

Tursunboy Adashboevning “Harflarning sarguzashti”, “Adolatli qozi”, “Oriyatli xo`roz”, “Oltin yolli tulpor qissasi”, “qoplonko`l”, “Rostonxola - Dostonxola”, “Sayohat - rohat”, “Oq yol”, “Burgutning o`limi” kabi ertak-dostonlarida ham bolalarning qaynoq hayotlari ufurib turadi. Ularni nimagadir da'vat etadi. Yaxshi o`qishga, ishlashga, yashashga chaqiradi. Kelajakda ajoyib insonlar bo`lib kamol topishga chorlaydi.

Tursunboy Adashboevning yumorga boy, hazil-mutoyiba bilan yug`rilgan asarlari jaxon tillariga ham o`grilgan. Masalan, “Tegrimon”, “Sovg`a”, “Olti oyoqli xo`tikcha”, “Olatog` ohanglari” singari bir talay asarlari jaxon xalqlari tillarida chop etilgan. Sara she'rlari esa qirg`iz va o`zbek bolalar she'riyati ontologiyalariga kiritilgan.

T. Adashboev jaxon bolalar she'riyati vakillarining kitoblarini o`zbek tiliga tarjima qilish borasida ham faol ish olib borayotir. Uolter De Lamer, Yan Bjexva, Korniy Chukovskiy, Samiul Marshak, Musa Jozg`uziy, qodir Mirzaliev, Og`akeldi Allanazarov, qanibek Junishev, Saidali Ma'mur, Leones Briedeo she'rlarini yosh kitobxonlar Tursunboy Adashboev tarjimasida o`qishadi. Shoir kichkintoylarning ulkan adabiyotiga bo`lgan yuksak e'tiqodini quyidagi misralarda ro`y-rost bayon etadi:

Bolajonlar, ko`nglim nayin

Sizlar uchun so`zlaganman.

qudrat Hikmat aytgandayin

Har maqomda yozmaganman.

Tabiati tabiatni e'zozlaydigan, go'zal she'r, qo'shiq va dostonlar yaratib kelayotgan ajoyib shoirlardan biri Qambar Otadir.

Qambar Ota tabiat va bolani birdek yaxshi ko'radi. Hayotda bular tarbiyaga, mehr-muruvvatga muhtoj deb biladi. Haqiqatdan ham shunday. Axir bir niholni erga ekib, uning ostini yumshatib, tanasini oqlab, keraksiz shoxlarini kesib, suv qo'yib turmasangiz u hech qachon daraxt bo'lmagani kabi chaqaloqlikdan boshlab unga odob-axloqni o'rgatib, ta'lim-tarbiya bermasangiz bola ham el-yurt orzu qilgandekinson bo'lib ulg'aymasligi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, kichkintoylarning mehribon shoiri Qambar Otaning butun ijodi bolalar tarbiyasi va tabiat himoyasiga bag'ishlangan.

Qambar Otaning she'rlarini o'qigan bola ona-Vatanning o'ziga noma'lum, sirli tomonlarini bilib, o'rganib o'sadi, uni himoya qilishga, asrab-avaylashga shay bo'lib kamol topadi. Shoir qahramon tilidan shularni yozadi:

Er chanqog'in qondirgan

Yomg'ir bo'lsam yarashar,

O't-o'lanni yashnatib,

Yayrab kulsam yarashar...

Dengizga hayot bergan

Daryo bo'lgim keladi.

Nur istasang quyoshli

Dunyo bo'lgim keladi.

Shoirlar ona tabiatning o'zi mavzu va ilhom beradi. "Oq bulut, ko'k bulut" she'rida yomg'irni olqishlaydi. Yomg'ir qancha ko'p yog'sa, suv shuncha serob bo'lishini, maysalar, butun borliq guldek yashnab, odamlar sog'lom-u ekin-tekin mo'l-ko'l bo'lishini ta'kidlaydi. Shoir tomchi – yomg'irning har qanday turini ma'qullaydi:

Jalayu do'l bo'lsang ham
qarshilar maysa, yaproq
Kutadi sel bo'lsang ham
Bag'ri keng ona tuproq.
Seni mushtoq kutganni
g'uborini yuv bulut
Xo'l bo'lishdan qo'rqqani
Pana joyga qo'v bulut.

Bezraygan tun. Ota-bola	Ichirsak shuncha zahar!" –
Paxtasiga suv tarar.	Bolajonin bu savoli
Bolajonin non tutilgan	Ezib o'tar dilini.
Belbog'chasi belida.	Xayqirgisi kelar, zo'rg'a
Suv taraydi, o'zidan ham	Tishlab qolar tilini.
Katta ketmon qo'lida.	Notavonu ojizlikdan
Oyog'ida eski kalish,	O'yga cho'mar behisob:
Sal titilgan pochasi.	Bizda zarra vijdon bormi,
Havo dim. Naq esnoq kelib	Bizda bormi bir insof!
Uyqu bosar kechasi.	Qani endi bobolardan

Tashnalikdan tanglay qotar:	Meros billur buloqlar!
“Bir qultum suv bo`lsaydi,	Ekinlarga taralguchi
Oh, top-toza, muzday sovuq	Yuzlab zumrad buloqlar!
Bir yutim suv bo`lsaydi!...”	Biz istagan ariqlarga
Etagdagi suvdan sekin	Non buktirib er edik.
Hovuchiga oladi.	Etti marta dumalagan
Yaxshiyamki otajoni	Suvni halol der edik.
Buni payqab qoladi:	Salgina ko`zni ochib
“Chida bolam, bu naq og`u,	Boqsai yorug` olamga,
Ha demayin tong otar”	So`qir qismat, javob bergil
“Nahotki biz go`zallarga	Nima qilar bolamga!

Shoirning o`nlab she'rlarida tabiatga munosabat, hayvonlar, jonivorlar – u parrandalarni asrash, avaylash, ularni ko`paytirish masalasi ko`tariladi. Uning ko`pgina she'rlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar berilib tinglaydigan asarlarga aylanib qolgan. “Do`stlik kerak”, “qalam deydi”, “Men otimni taqaladim”, “Asl bobo”, “Go`zal odob, a'lo xulq”, “Mehribonlar”, “Vatanni yashnataylik”, “Kitob olib bersangiz”, “Bog`cha opam”, “Fikrim o`sar”, “Bog`chamizda” she'rlarini tinglamagan bog`cha bolasi yoki boshlang`ich sinf o`quvchisi topilmasa kerak.

O`zbek bolalar she'riyatida oddiygina qalam haqida ancha she'rlar bitilgan. Shoirning “qalam deydi” she'ri butunlay o`ziga xos, arginal asar. Sarlovhasidan sezilganidek butunlay yangi mazmun, yangi ifodaga ega bo`lgan yangi she'r. qalam

sinib ketmay uzluksiz ishlashni, odamlarga foyda, naf keltirishini istaydi. Yosh kitobxonni tinmay o`qish, yozish va izlanishga chorlaydi:

qalam deydi	Ayab, aslo
Yozavergin,	Tindirmagin.
Ilm koni	qog`ozlarda
Kezavergin.	Izm bo`lsin
Faqat meni	Elga aytgan
Sindirmagin.	So`zim bo`lsin.

Bola tetapoya qilib yura boshlashi bilanoq o`ziga sherik, do`st, o`rtoq qidiradi. Ular qancha ko`p bo`lsa shuncha yaxshi, davra yanada kengayib, o`yin kulgu avjiga chiqapveradi. O`yinda ham o`q shu, mehnatda ham do`st bir-biriga qo`l-qanot:

Do`st mushkulini oson –
qilishni istar inson,
Olam to`lsin ziyoga,
Do`stlik kerak dunyoga.

“Kitob olib bersangiz” she'rining qahramoni Halim bog`chaga qatnaydigan bola. U otasi oldiga bir qator masalalarni ko`ndalang qilib taxlab tashlaydi. Bolaning orzusi zo`r, istak-niyati buyuk. Mobodo ota unga ot, tuya va durbin olib bersa murodi hosil bo`ladi, maqsadiga erishadi. Agar kitob sovg`a qiladigan bo`lsa, kelajakda yaxshi o`qib, ilmda olamni lol qoldirmoqchi,

Kitob olib bersangiz
Sipqoraman ziyni –

Ilm zo`rlar yorqinroq

Yoritadi dunyoni.

Shoir asarlari orasida “Go`zal odob, a'lo xulq” she'ri alohida ajralib turadi. She'r bor-yo`g`i sakkiz misradan iborat. She'rda o`qimishli, bilimdonlikdan tashqari, yuksak axloqli bo`lish to`g`risida ham gap boradi:

Chin yurakdan tirishsang

A'lo o`qishing mumkin.

Bilganlaring ehtimol

Yodingdan chiqar bir kun.

Go`zal odob, a'lo xulq

O`rnshsa yuragingga,

Seni mangu tark etmay,

Etkazar tilagingga.

Qambar Ota anchagina “Erka egazaklar”, “Cho`lga sayohat”, “Baroq mushuk fojeasi”, “Bog`bon hikoyasi”, “Rabotlar”, “g`ildiraklar qo`shig`i”, “O`n ikki supa” kabi yirik doston, doston-ertaklar yozgan. Bular orasida “Erka egizaklar” dostoni juda ommalashib ketdi.

Dostonda “Farzand aziz, odobi undan aziz” maqoli atrofida gap boradi. Shoh xudodan tilab-tilab o`g`il-qizli bo`ladi. Shog` farzandlar tarbiyasi bilan yaxshi shug`ullanmaydi. To`g`ri, o`nglab enagayu boshqa tarbiyachilar ular xizmatida. Bolalar juda erka o`sib ulg`ayishadi. Erkatoylar otaning xazinasining kulini ko`kka sovuradilar. Odobsizlik, andishasizlik qilib bolalar shog`ni vayron

qiladilar. Shoir asarga ta'sirli yakun yasaydi. Yomonlardan, odobsizlardan qattiq ranjiydi:

Odob inson ziynati.	Ota-o`g`il, el qizi.
Yaxshi farzand oshirar	O`g`il – yurtning posponi,
O`z yurtining xislatin	Qiz – baxtimiz yulduzi.
Yomon ko`p bo`lsa elda,	Sodiq bo`lsin vatanga
Xarob bo`lar bir kuni.	Har kim kichik yoshidan.
Narsaga o`ch ekan xalq	Baxt quyoshni manguga
Kiradi g`aflat tomon	Arimasin boshidan!
Hamma bola bo`lishsin	

Qambar Otaning “Kitobcha va buzoqcha”, “Chavandoz orzusi”, “Tinim bilmas Shamolvoy”, “Shirin so`z”, “G`ildirak”, “Tabiatga rahmat” kabi o`ndan ortiq kitoblari o`quvchilarning ma'naviy mulkiga aylangan.

XULOSALAR

Badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutiladi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag`riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o`rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman «O`qish kitobi» darsliklaridagi barcha mavzular o`quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug`atini boyitishga, og`zaki va yozma nutqini to`g`ri shakllantirish, nutq madaniyatini o`stirishga ham qaratiladi.

O`quvchilar darsliklar yordamida o`zlashtiriladigan bilim, ko`nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo`lishini tushunib etishlariga erishish o`qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

O`qish darslari oldiga qo`yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O`quvchilarda yaxshi o`qish sifatlari: to`g`ri, tez, ongli, ifodali o`qish malakalarini shakllantirish.
2. O`quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o`rgatish, kitobga muhabbat uyg`otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko`tarish.
3. O`quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.
4. O`quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan etuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O`quvchilarning bog`lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o`stirish.

6. O`quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo`lib, ular zamonaviy o`qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o`zaro bog`liq holda va sinfdan tashqari o`qish mashg`ulotlari jarayonida hal qilinadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod Uzbekiston tarakkiyotining poydevori. T.: 1998.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: 1997. 5- jild.
3. Uzbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Konuni. T.: 1997
4. Uzbekiston Respublikasining Milliy dasturi. T.: 1998.
5. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim . 2006 , 5- son .
6. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim . 2006 , 5- son
7. Abdullaeva K. Nazarov K. Yo'ldosheva Sh. Savod urgatish darslari . T.: Ukituvchi .1996 .
8. Gapparova T., Shodmonov E. , Eshturdieva G. Alifbe .(Savod .) ” T .: “Ukituvchi ”1999 yil
9. Safarova R . va boshkalar “Alifbe ” T ., 2006 .
10. Gulomov M. Yozuv daftari. T., Ma'naviyat. 2006
11. Safarova R. Va b. Savod o'rgatish. T.: Ma'naviyat. 2003.
12. Gafforova T. Gulomova X. Eshturdieva G. 1- sinfdan savod o'rgatish. T.: Sharq. 1996.
- 13 Gapparova T., Shodmonov E. , Eshturdieva G. Ona tili . 1-sinf uchun. T .: Ukituvchi .1999.
- 14 Abdullaeva K. va boshkalar . Ona tili . T.: Ukituvchi .1999.
- 15 Gapparova T., Shodmonov E., Gulomova X. Ona tili . 1-sinf uchun.

T.:Sharq. 2005.

16 Gulomova X. Gafforova T. 1- sinfdan ona tili darslari. T.: Sharq. 2003.

17 . Kosimova K. Fuzailov S. Ne'matova A. Ona tili . 2- sinf uchun T.:
Cho'lpon. 2005.

18 Kosimova K. Ne'matova A. 2- sinfdan ona tili darslari T.: Cho'lpon.
2004.

19 Fuzailov S. , Xudoberganova M., Ona tili . 3- sinf uchun T.: Ukituvchi.
2005.

20. Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfdan ona tili darslari. 3- sinf
uchun T.: Ukituvchi. 2005.

21. Ikromova R. Gulomova X. Yo'ldosheva Sh. Shodmonqulova D. Ona
tili. 4- sinf uchun T.: Ukituvchi . 2007

22. Gulomova X. Yo'ldosheva Sh.Shermatova U. 4- sinfdan ona tili darslari.
T.: Ukituvchi . 2003

23. Gaffarova T. va boshkalar . Ukish kitobi . 1-sinf uchun. T. : 2006

24. Gaffarova T. va boshkalar. 1-sinfdan ukish darslari . T. : 2003 .

25. Abdullaeva K. va boshkalar. Ukish ktobi . 2- sinf uchun. T.: 2006.

26. Abdullaeva K. va boshkalar. 2- sinfdan ukish darslari , T.: 2004

27. Umarova M. , Xakimova Sh. Ukish kitobi . 3- sinf uchun, T.: 2006 .

28. Umarova M . 3- sinfga ukish darslari , T.: Uqituvchi. 2004 .

29. Matchonov S. Shojalilov A. Gulomova X. Sariev Sh. Ukish kitobi .
4- sinf uchun. T.: 2007.

30. .Matchonov S. va boshkalar 4- sinfga ukish darlari , T., 2007.

24. Xudoberganova M. “ Bayonlar tuplami ” Toshkent 1995
25. Rojdestvenskiy N.S. Kustareva V.A. Metodika nachalnogo obucheniya russkomu yazo`ku. Prosvehenie. M.: 1965.
26. Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbikiy asoslari. T.: Fan.. 2006.
27. Yuldoshev J.. G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari ., T.: Ukituvchi. 2004.
28. Umumiy psixologiya. T.: Uqituvchi. T.: Uqituvchi. 1999.
29. Uquvchi ma'naviyatini shakllantirish. T.: Sharq. 2000.
30. Kudryashov N.I. Vzaimosvyaz metodov obucheniya na urokoax literaturo`. M.: Prosveshenie. 1981.

IV bosqich talabasi Ahmedova Maftunaning 5141600 – Boshlang'ich ta'lim sport va arbaviy ish yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun «**Mustaqillik davridagi bolalar adabiyoti va kitobxonligi orqali kichik yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish**» mavzusida yozgan BMIga ilmiy rahbarning

XULOSASI

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo'lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o'qib o'rganiladi. O'qish darsliklarga, asosan, hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham o'qitiladi.

Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she'r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoq predmet, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi.

Talaba Ahmedova Maftunaning MBI ham aynan mustaqillik davri bolalar adabiyoti namunalari orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish metodikasi va usullari aniqlashdan iborat. Unda o'kish darslarida badiiy asarlarni janriy xususiyatlariga ko'ra o'rganishning ilmiy-pedagogik asoslari, o'qish darslarida bolalar adabiyoti vakillarining asarlarini o'rganish bo'yicha o'zining fikrlarini bildirgan.

Ishning boblari va qo'yilgan masalalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan, tanlangan mavzu mohiyatini to'liq qamrab oladi. Ishdagi ayrim kuzatishlar va xulosalar e'tiborga molik. MBIning to'liq yakunlangan deb hisoblayman va uni YaDAK a'zolari muhokamasi uchun himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:



prof. Mamatov A.

IV bosqich talabasi Ahmedova Maftunaning 5141600 – Boshlang'ich ta'lim sport va tarbiyaviy ish yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun «**Mustaqillik davridagi bolalar adabiyoti va kitobxonligi orqali kichik yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish**» mavzusida yozgan BMiga

TAQRIZ

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi.

O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidani, ertak matni she'r matnidani, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidani tubdan farq qiladi. Topishmoq predmet, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi.

Talaba Ahmedova Maftunaning MBI ham aynan mustaqillik davri bolalar adabiyoti namunalari orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish metodikasi va usullari aniqlashdan iborat. Unda o'kish darslarida badiiy asarlarni janriy xususiyatlariga ko'ra o'rganishning ilmiy-pedagogik asoslari, o'qish darslarida bolalar adabiyoti vakillarining asarlarini o'rganish bo'yicha o'zining fikrlarini bildirgan.

Ishning boblari va qo'yilgan masalalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan, tanlangan mavzu mohiyatini to'liq qamrab oladi. Ishdagi ayrim kuzatishlar va xulosalar e'tiborga molik. MBIning to'liq yakunlangan deb hisoblayman va uni YaDAK a'zolari muhokamasi uchun himoyaga tavsiya etaman.

Tagriza



f.f.n. Ibragimova F.

IV bosqich talabasi Ahmedova Maftunaning 5141600 - Boshlang'ich ta'lim sport va tarbiyaviy ish yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun «**Mustaqillik davridagi bolalar adabiyoti va kitobxonligi orqali kichik yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish**» mavzusida yozgan

BMlga

TAQRIZ

Badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutiladi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman «CTqish kitobi» darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish, nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib etishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Talaba Ahmedova Maftunaning MBI ham aynan mustaqillik davri bolalar adabiyoti namunalari orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish metodikasi va usullari aniqlashdan iborat. Unda o'kish darslarida badiiy asarlarni janriy xususiyatlariga ko'ra o'rganishning ilmiy-pedagogik asoslari, o'qish darslarida bolalar adabiyoti vakillarining asarlarini o'rganish bo'yicha o'zining fikrlarini bildirgan.

Ishning boblari va qo'yilgan masalalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan, tanlangan mavzu mohiyatini to'liq qamrab oladi. Ishdagi ayrim kuzatishlar va xulosalar e'tiborga molik. MBlni to'liq yakunlangan deb hisoblayman va uni YaDAK a'zolari muhokamasi uchun himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

*Fixxan shakri -
19-sonli umum-
m maktabining
direktori*



T. Diganov